



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

FENTEZI MATNINING NOMINATIV, KONSEPTUAL VA DISKURSIV XUSUSIYATLARI

Bo'riyeva Nargiza Qo'chqarovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti, PhD, dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada fentezi matnining nominativ, konseptual va diskursiv xususiyatlari lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Fentezi xayoliy olamni til vositasida modellashtiruvchi badiiy tizim sifatida talqin etilib, undagi nominatsiya jarayonining konstruktiv xarakteri asoslab beriladi. Tadqiqotda nominativ birliklarning ontologik, tasnifiy, madaniy-semantik va pragmatik funksiyalari yoritiladi. Shuningdek, konseptual tuzilma va uning metaforik ifodalanishi, markaziy konseptlar tizimi hamda diskursiv mexanizmlar tahlil qilinadi. Natijada fentezi matni til va tafakkur o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi murakkab lingvokognitiv va diskursiv tizim sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Fentezi matni, nominatsiya, konsept, diskurs, lingvistik tahlil, konseptual tuzilma, nominativ birliklar, lingvokognitiv yondashuv, metafora, diskursiv mexanizm, badiiy olam, til va tafakkur, semantika, pragmatika, onomastika.

НОМИНАТИВНЫЕ, КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ И ДИСКУРСИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ФЭНТЕЗИЙНОГО ТЕКСТА

Буриева Наргиза Кучкаровна

Джизакский государственный педагогический университет, PhD, доцент

Аннотация

В данной статье анализируются номинативные, концептуальные и дискурсивные особенности фэнтезийного текста с лингвистической точки зрения. Фэнтези рассматривается как особый тип художественного дискурса, моделирующий воображаемый мир средствами языка, при этом обосновывается конструктивный характер номинации. В исследовании раскрываются онтологические, классификационные, культурно-семантические и прагматические функции номинативных единиц. Также рассматриваются концептуальная структура, метафорическое выражение, система ключевых концептов и дискурсивные механизмы. В результате фэнтезийный текст оценивается как сложная лингвокогнитивная и дискурсивная система, отражающая взаимосвязь языка и мышления.

Ключевые слова: фэнтези текст, номинация, концепт, дискурс, лингвистический анализ, концептуальная структура, номинативные единицы, лингвокогнитивный подход, метафора, дискурсивный механизм, художественный мир, язык и мышление, семантика, прагматика, ономастика.

NOMINATIVE, CONCEPTUAL, AND DISCURSIVE FEATURES OF FANTASY TEXT

Bo'riyeva Nargiza Qo'chqarovna

Jizzakh State Pedagogical University, PhD, Associate Professor

Abstract

This article analyzes the nominative, conceptual, and discursive features of fantasy texts from a linguistic perspective. Fantasy is interpreted as a special type of artistic discourse that models an imaginary world through language, and the constructive nature of nomination is

substantiated. The study examines the ontological, classificatory, cultural-semantic, and pragmatic functions of nominative units. It also explores conceptual structures, metaphorical representation, core concepts, and discursive mechanisms. As a result, fantasy text is evaluated as a complex linguocognitive and discursive system reflecting the interaction between language and thought.

Keywords: Fantasy text, nomination, concept, discourse, linguistic analysis, conceptual structure, nominative units, linguocognitive approach, metaphor, discursive mechanism, artistic world, language and thought, semantics, pragmatics, onomastics.

Fentezi janri adabiyotshunoslikda badiiy janr sifatida tavsiflanishi bilan bir qatorda, tilshunoslik uchun ham mustaqil tadqiqot obyektini tashkil etadi. Mazkur tadqiqotda fentezi, avvalo, xayoliy voqelikni til vositasida modellashtiruvchi maxsus badiiy matn turi sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuv fentezi matnida “nima tasvirlangan?” degan savoldan ko‘ra, “xayoliy olam til orqali qanday barpo etiladi?” degan metodologik savolni markazga olib chiqadi. Shuning uchun fentezi matnini lingvistik tahlil qilishda asosiy e‘tibor uning lisoniy tarkibiga, ya‘ni nominativ tizim, konseptual tuzilmalar va diskursiv mexanizmlarga qaratiladi.

Bu uch yo‘nalishning bir butun metodologik tizim sifatida tanlanishi tasodifiy emas. Birinchidan, fentezi olamida mavjudot va makonlar avvalo nom orqali “mavjudlik maqomi”ga ega bo‘ladi. Ikkinchidan, fentezi matni ma‘noni oddiy syujet orqali emas, balki tayanch konseptlarning qayta talqini orqali tashkil etadi. Uchinchidan, xayoliy olamning o‘quvchi tomonidan qabul qilinishi muallif qurayotgan diskursning ishoniruvchi va mantiqiy mexanizmlari bilan ta‘minlanadi. Shu sababli ushbu tadqiqotda fentezi matnini tahlil qilish nominatsiya nazariyasi [3; 38-b.], kognitiv-konseptual tahlil [4; 10–15-b.] hamda diskurs tahlili [2] doirasida amalga oshiriladi.

Fentezi matnining eng muhim lingvistik xususiyatlaridan biri unda nominatsiya jarayonining konstruktiv xarakterga ega ekanligidir. Realistik matnlarda nominatsiya ko‘pincha real obyektни nomlash va uni nutqda farqlash vazifasi bilan bog‘liq bo‘lsa, fentezida nomlanayotgan obyektlar — qahramon, makon, artefakt, mifologik mavjudot va hokozolar — real voqelikda mavjud bo‘lmasligi mumkin. Natijada nominatsiya fentezi matnida referensial belgilash vositasi bo‘lishdan tashqari, xayoliy obyektни konseptual jihatdan shakllantirish va uni matn ichida “mavjudlik” sifatida mustahkamlash mexanizmiga aylanadi.

Tilshunoslikda nominatsiya masalasi obyektни oddiy nomlash bilan cheklanmasligi, balki nomlash jarayoni orqali ma‘no va bilim tuzilmalari tashkil topishi bilan izohlanadi. N. D. Arutyunova til va inson dunyoqarashi o‘rtasidagi munosabatni yoritib, til birliklarining inson tajribasini konseptual ifodalashdagi o‘rnini asoslaydi [3; 38-b.]. E. S. Kubryakova esa kognitiv yondashuv doirasida til birliklarining, jumladan, nomlashning bilish jarayonidagi rolini ko‘rsatib, tilni “bilimga eltuvchi” va “bilimni tashkil qiluvchi” mexanizm sifatida izohlaydi [4; 28-b.]. Shu ma‘noda fentezi matnida nominatsiya tayyor obyektни belgilash emas, balki obyektни matn olamida barpo etishga xizmat qiladi.

Fentezi matnida nominativ birliklarning — antroponimlar, toponimlar, mifonimlar, ergonimlar, xrononimlar va boshqalarning — vazifasi ham aynan shu bilan belgilanadi. Ular muqobil olamning tuzilmaviy asosini tashkil etib, oddiy “nom” vazifasidan tashqari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. **Ontologik vazifa** — obyektning matndagi mavjudlik maqomini ta‘minlaydi, ya‘ni nom berilgan narsa “bor” bo‘ladi.
2. **Tasnifiy vazifa** — olam ichidagi ierarxiya va sinflarni ajratadi: urug‘, tabaqa, irq, “oliy kuchlar” va hokazo.
3. **Madaniy-semantik vazifa** — nomning ichki shakli, fonetik-grammatik modeli yoki etimologik motivatsiyasi orqali olamning “tarixiyli” va “madaniyli” taassurotini kuchaytiradi.
4. **Pragmatik vazifa** — o‘quvchida baho va munosabat uyg‘otadi, masalan, “qahramonga

xos”, “vahimali”, “muqaddas”, “taqiqlangan” singari konnotatsiyalarni shakllantiradi.

V. N. Telia lingvokulturologik yoʻnalishda birliklarning, jumladan, barqaror semantik komponentli birliklarning madaniy konnotatsiyalarni tashuvchi xususiyatini izohlaydi [8; 48-b.]. Bu yondashuv fentezidagi nominativ birliklarni ham faqat “nom” emas, balki madaniy kod sifatida koʻrishga imkon beradi. Demak, nom olamning axloqiy-meʼyoriy tizimi, qadriyatlar va “ichki tarixiy xotirasi”ni oʻquvchiga uzatadi.

Shunday qilib, fentezi matnida nominatsiya jarayoni tilshunoslikdagi referensial modeldan farq qiluvchi konstruktiv xarakterga ega boʻlib, nominatsiya nazariyasi va kognitiv tilshunoslik doirasida tahlil qilish uchun yuqori ilmiy salohiyatga ega materialni beradi [3; 79–84-b.].

Fentezi matnida til faqat nominativ vazifani emas, balki konseptual modellashtirish vazifasini ham bajaradi. Kognitiv yondashuvning markaziy gʻoyasi shundan iboratki, til birliklari insonning borliq haqidagi bilimlarini bevosita aks ettiradi va tashkil etadi. Shu maʼnoda “konsept” til va tafakkur bogʻlanishini tushuntiruvchi tayanch birlik sifatida qaraladi. E. S. Kubryakova konseptni bilimning kognitiv birligi, tilni esa bilimni tuzuvchi va uzatuvchi mexanizm sifatida izohlashi bilan konseptual tahlilning metodologik zaminini belgilaydi [4; 86-b.]. Konseptual tahlilda metafora alohida oʻrin egallaydi. J. Lakoff va M. Johnson konseptual metafora nazariyasida metaforani faqat badiiy bezak emas, balki inson tafakkurining asosiy mexanizmi sifatida asoslaydi. Ularning fikricha, inson koʻpincha bir sohani boshqa soha orqali tushunadi va buni til orqali namoyon qiladi [1; 87–94-b.]. Fentezi matnida aynan shu mexanizm kuchli ishlaydi: “sehr”, “taqdir”, “oliy kuch”, “qutqaruvchi qahramon”, “muqaddas buyum” kabi mazmunlar oddiy leksik maʼno doirasida emas, balki konseptual makon ichida tizimlashadi. Fentezi asarlarida odatda quyidagi konseptlar markaziy oʻrin tutadi: “ezgulik” / “yovuzlik”, “sehr”, “kuch”, “taqdir”, “hayot / oʻlim”, “qurbonlik”, “sinov”. Biroq fentezi matnining oʻziga xosligi shundaki, bu konseptlar real madaniy tajribaga tayangan holda mutlaqo yangi mifologik va xayoliy kontekstda qayta konseptuallasadi. Natijada anʼanaviy konseptlar oʻzining odatiy semantik chegarasidan chiqib, muqobil konseptual makon hosil qiladi. Masalan, “sehr” koʻpincha oddiy hodisa emas, balki olamning ontologik qonuni, axloqiy mezonlar bilan bogʻliq kuch sifatida modellashtiriladi; “taqdir” esa shaxsning irodasi bilan ziddiyat yoki uygʻunlikda tasvirlanadi.

Z. D. Popova va I. A. Sternin kognitiv tilshunoslik doirasida konseptni tahlil qilishda uning tuzilishi, qatlamlari va maydon koʻrinishlarini muhim deb biladi; konseptning matnda turli til vositalari orqali namoyon boʻlishi esa konseptual tahlilning asosiy yoʻnalishlaridan biri sifatida baholanadi [5; 46–48-b.]. Fentezi matnida konseptlar, odatda, quyidagi lisoniy vositalar orqali modellashtiriladi:

- metafora va metonimiya — konseptual xarita yaratadi [1];
- baholovchi leksika — axloqiy-meʼyoriy qutblanishni kuchaytiradi;
- ramziy obrazlar — konseptning vizual-mental tasavvurini mustahkamlaydi;
- arxetipik motivlar — konseptni takroran faollashtiradi.

Shu jihatdan fentezi matni konseptual tahlil uchun alohida ahamiyat kasb etadi: unda til va tafakkur oʻrtasidagi munosabat realistik matnlarga nisbatan koʻproq tizimli xarakterga ega. Demak, konseptual tahlil fentezini faqat syujet yoki obrazlar orqali emas, balki maʼno arxitekturasi asosida izohlash imkonini beradi [4; 95-b.].

Fentezi matnining lingvistik tadqiqida diskurs tushunchasi alohida metodologik qiymatga ega. Diskurs tahlili matnni faqat til birliklari yigʻindisi sifatida emas, balki ularning kommunikativ vazifasi, idrok mexanizmi va ijtimoiy-madaniy kontekstdagi qoʻllanishi bilan birgalikda koʻrib chiqadi. T. van Deyk diskurs va kontekst munosabatini izohlar ekan, kontekstni “obyektiv ijtimoiy oʻzgaruvchilar” sifatida emas, balki muloqot ishtirokchilarining kognitiv modeli, yaʼni vaziyatni idrok etish shakli sifatida talqin qiladi [2; 234-b.]. Bunday yondashuv fentezi matni uchun ayniqsa muhimdir, chunki fentezi olami oʻquvchi uchun real tajriba emas, balki matn orqali qurilgan kognitiv voqealardir.

Yu. S. Stepanov diskursni madaniy hodisa sifatida ko‘rib, unda til birliklari bilan bir qatorda madaniy konstantalar [7], qadriyatlar va dunyoqarash modellari muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Fentezi diskursi aynan shu jihati bilan ajralib turadi: u real voqelikni aks ettirishga emas, balki muqobil voqelikni ishonarli, mantiqan yaxlit va qabul qilinadigan tarzda taqdim etishga qaratilgan kommunikativ tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda muallif va o‘quvchi o‘rtasida shartli “ishonchli kelishuv” shakllanadi, mazkur kelishuvning ishlashi esa diskursiv mexanizmlar orqali ta’minlanadi.

Fentezi diskursida quyidagi mexanizmlar muntazam uchraydi va o‘quvchi idrokini boshqaradi:

1. **Hikoyaviy dalillash** — olam qonunlarini “hikoya ichidagi hikoya”, qadimiy manbalar, rivoyatlar, yilnomalar orqali asoslash.
2. **Aksiologik kod** — baholovchi birliklar orqali ezgulik va yovuzlik oppozitsiyasini barqarorlashtirish.
3. **Arxetipik ssenariylar** — qahramonning sinovi, safar, qurbonlik, “qutqaruv” modeli kabi tuzilmalar orqali diskursni tanish kognitiv sxemalarga bog‘lash.
4. **Terminologik barqarorlik** — olamga xos nominatsiyalarni izchil takrorlash orqali ichki mantiqni mustahkamlash.

T. van Deykning kontekstni kognitiv model sifatida talqin qilishi [2; 134-b.] fentezi diskursida “ishontirish”ning mohiyatini tushuntiradi: o‘quvchi matnni shunchaki o‘qimaydi, balki muallif taklif qilgan kontekst modelini qabul qiladi va shu model asosida olamni mantiqan idrok etadi. Yu. Stepanovning diskursni madaniy konstantalar bilan bog‘lash haqidagi qarashlari [7; 167–178-b.] esa fentezidagi arxetiplar va mifologik kodlarning diskursiv vazifasini izohlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, fentezi diskursi diskurs tahlili nuqtayi nazaridan o‘rganilganda, unda tilning nafaqat estetik, balki ishontiruvchi, modellashtiruvchi va me’yor belgilovchi funksiyalari ham aniqlanadi. Bu esa fentezi matnining lingvistik tabiatini kompleks ravishda ochib berish imkonini beradi. Demak, fentezi janrining adabiyotshunoslikdagi nazariy talqinlari saqlangan holda, asosiy e’tibor fentezi matnining nominativ tizimi, konseptual arxitekturasi va diskursiv mexanizmlarini izchil tahlil qilishga qaratiladi. Mazkur yondashuv keyingi boblarda onomastik birliklar va ularning motivatsiyasi, mikrokonseptlar ierarxiyasi hamda fentezi diskursining modellari kabi masalalarni aniq lingvistik mezonlar asosida tadqiq etish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago; London: University of Chicago Press, 2003. – 256 p.
2. Van Dijk T. A. *Discourse and Context: A Sociocognitive Approach*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – XII, 267 p.
3. Арутюнова Н. Д. *Язык и мир человека*. – 2-е изд., испр. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 911 с.
4. Кубрякова Е. С. *Язык и знание: На пути получения знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира*. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.
5. Попова З. Д., Стернин И. А. *Когнитивная лингвистика*. – М.: АСТ: Восток-Запад, 2007. – 314 с.
6. Реформатский А. А. *Введение в языковедение / под ред. В. А. Виноградова*. – М.: Аспект Пресс, 1996. – 536 с.
7. Степанов Ю. С. *Константы: словарь русской культуры*. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Академический проект, 2001. – 989 с.
8. Телия В. Н. *Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты*. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 286 с.